

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasida dotsenti, Muratov Xusan Xolmurotovich taqdiri ostida

**Abdumajitov Avazjon Shuhrat o‘g‘li Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasida o‘qituvchisi
+998 99 841 25 18,
avazabdumajitov95@gmail.com**

RANGTASVIR ASARLARI UCHUN GRUNT TURLARI VA TEXNIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir haqida tushuncha, rangtasvir asarlari uchun grunt turlari va texnikasi haqida ma’lumot berilgan. Asarning uzoq muddat saqlanishi, tashqi muhit injiqliklariga va turli o‘zgarishlarga chidamliligi va bu holatlarni aniqlab oldini olish muhimdir. Rangtasvir asarlarining yaratilishida qadimdan qo‘llanilgan bo‘yoqlar tarkibiga moddalar, ya’ni pigmentlar, yelimlar, moylar, mo‘yqalamlar, loklar, tag asoslar, ularning yuzasiga berilgan gruntnlar haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Rangtasvir, grunt, yelimli grunt, kozein, rux, emulsiyali grunt.

ВИДЫ И ТЕХНИКА НАНЕСЕНИЯ ГРУНТА ДЛЯ ПОКРАСНЫХ РАБОТ

Аннотация: В данной статье дается представление о живописи, видах грунтовок и техниках выполнения малярных работ. Важно сохранить произведение на длительное время, выдержать капризы внешней среды и различные изменения, выявить и предотвратить подобные ситуации. Даются понятия о веществах, используемых при создании картин, т. е. о пигментах, клеях, маслах, кистях, лаках, основах и грунтах, наносимых на их поверхность.

Ключевые слова: Краска, грунтовка, клейкая грунтовка, казеин, цинк, эмульсионная грунтовка.

TYPES AND TECHNIQUES OF GRUNT FOR PAINTING WORKS ABSTRACT

Abstract: This article provides an understanding of painting, types of primers and techniques for painting works. It is important to preserve the work for a long time, to withstand the vagaries of the external environment and various changes, and to identify and prevent these situations. Concepts are given about the substances used in the creation of paintings, i.e., pigments, glues, oils, brushes, lacquers, bases, and primers applied to their surface.

Keywords: Painting, grunt, glue grunt, cozein, zinc, emulsion grunt

Rangtasvirning toza – sof saqlanishini grunt belgilaydi.

Van Deyk

Ilm-fan, madaniyat va ma’rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko‘taradi, uni taraqqiyotini ta’minlaydi. Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2018-yil 25-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida" gi 474-sonli qarori imzolandi. Bu esa yurtimizda san’atga bo‘lgan e’tiborning nechog‘lik

yuksakligidan dalolat. Hozirgi zamon san'ati rivojlanishi, rassomlarning ijodiy izlanishi, yangi mazmunli ijodiy asarlar yaratish ustida izlanishlar olib borishi, dunyoqarashini boyitib borishi va insonlarning ma'naviy-ma'rifiy talablarini qondirishiga bog'liqdir[1].

Rangtasvirning muhim tasviriy va ta'sir vositasi-rangdir. Ranglarning yillar davomida asl holidek saqlanishi bu albatta matodagi gruntga bog'liq. Asarlarning uzoq saqlanmasligi maktablarda rasm chizish texnikasi va texnologiyasining o'qitilishi eng kam hal qilingan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Rassomlik asarlarining saqlanish darajasi uch omil bilan belgilanadi:

- ✓ rasmni tashkil etuvchi barcha boshlang'ich materiallarning sifati;
- ✓ rassomning ishi jarayonida ulardan texnologik jihatdan muntazam foydalanish;
- ✓ asarni saqlash va parvarish qilish tizimi.

Ushbu omillarning har biri keng ko'lamlı muammolarni keltirib chiqaradi ularning barchasi birgalikda bajarilmasa asarlarning erta qarishga yoki asarlarning yo'q bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Asarning uzoq muddat saqlanishi, tashqi muhit injiqliklariga va turli o'zgarishlarga chidamliligi va bu holatlarni aniqlab oldini olish muhimdir. Rangtasvir asarlarining yaratilishida qadimdan qo'llanilgan bo'yoqlar tarkibiga moddalar, ya'ni pigmentlar, yelimlar, moylar, loklar, mo'yqalamlar, tag asoslar, ularning yuzasiga berilgan gruntlar kiradi. Soha egasi bo'lishda hozirgi kunga qadar takomillashib, yangilanib borayotgan barcha yangi zamonaviy materiallar, ularning qo'llanishi, shular qatorida boshqa materiallar: qog'ozlar, qalamlar, akvarel, guash, tempera, sangina, pastel va boshqa shu kabilar texnik va texnologik jarayon bilimini o'zlashtirishni taqozo etadi[2].

GRUNTLAR. Rangtasvir uchun grunt kerakmi yo'qmi, bu qanday tag asosda ishlashga bog'liq. Masalan, toshga rangtasvir ishlan- sa, unda grunt mutlaqo kerak emas. Tekis tosh ustiga ishlangan rassomlar ishi bunga misol bo'ladi. Mato yoki yog'och- ga, kartonga va shu kabi boshqa materiallarga gruntlash zarur.

Matoga gruntlash. Matoni tagromga yaxshilab tortgandan so'ng, matodagi ip tugunchalarini qumqog'oz - pemza or- qali tekislanadi va qirib, so'ng toza jelatin yoki baliq yelimi eritmasi tayyorlanadi. U sovitib, jelesimon bo'lganidan so'ng, yelim eritma pichoq, enli shpatel va shetinali fleys orqali ma- toga surtiladi.

Yelim: eritma tayyorlash jarayoni:

1. Yelim; jelatin yoki baliq yelimi 5 gramm.
2. Suv 95 gramm.
3. Antiseptiklar (fenol, katamin yoki bo'r kislotasi) 0,02 gr.

Shisha bankaga yuqorida ko'rsatilgan retsept bo'yicha baliq yelimi yoki toza jelatin va suv solib ivitiladi (jelatin uchun 1 soat, baliq yelimi ko'proq ivitiladi).

Boshqa bir kastrulka ichiga to'rt buklad sochiq solinadi va ushbu sochiq ustiga bankadagi yelim ivitilmani quyiladi, so'ng kastrulkaga banka ichidagi eritma chegarasiga yetguncha sekin- asta

suv quyiladi, keyin kastrulkani ochiq olovga yoki elektr plitaga qo'yib, kastrulkadagi suv qaynab chiqquncha qizdiriladi. Qaynab chiqishi bilan elektr plita o'chiriladi (ko'p qaynatilsa, eritma yopishqoqlik xususiyatini yo'qotadi). So'ng eritmaga antiseptik fenol qo'shiladi. Emulsiyali va yelim gruntlar uchun yuqorida ko'rsatilgandek eritma tayyorlanadi va to'ldiruvchilar bo'r, pigment, rux qo'shiladi[3].

Yelimli grunt

Qatlamlar	Baliq	Suv	Rux	Bo'r	Antiseptik (fenol)
Yelimlash 2 qatlam	1	17	-	-	0,01
Grunt 3 qatlam	1	17	2.5-4	2.5-4	0,01

Qatlamlar	Baliq	Suv	Kungaboqar quyuq moyi	Rux oqartiruvchi	Bo'r	Antiseptik (fenol)
Yelimlash 2 qatlam	1	17				0,01
Grunt 3 qatlam	1	17	1,2-1,5	2-3	2-3	0,01

unt

Izoh: Baliq yelimi topilmasa, toza jelatin ishlatsa ham bo'ladi.

Antiseptiklar: katomin, fenol, boor kislotasi (qurug'i). Grunt tayyorlashda retseptda ko'rsatilganlarga va birin-ketinlikka rioya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yelimli grunt tayyorlash

Baliq yelimi yoki jelatinli eritmani tayyorlab, antiseptik qo'shiladi va rux (sink) kukuni, keyin bo'r qo'shib, yaxshilab aralashtiramiz. Tayyor bo'lgan gruntni shetina fleysi orqali oldindan yelim eritmasi surtilgan rna to yuzasiga surkaymiz, qurigandan so'ng yana 2 marta grunt beramiz.

I. Matoni yelimlashdan maqsad, undagi teshik oraliqlarini yopish. 2. Gruntlash esa rangtasvir uchun to'shak vazifasini bajaradi.

Emulsiyali grunt

Yuqorida ko'rsatilgandek, baliq yelimi yoki jelatinii eritma tayyor bo'lgandan keyin eritmaga kungaboqarning quyultirilgan moyi qo'shiladi va antiseptik qo'shib aralashtiriladi, so'ngra ketma-ketlik bilan rux (sink), bo'r qo'shib, uzoq vaqt yaxshilab emulgator yordamida aralashtiriladi. Sovib me'yo riga yetgach, emulsiyali grunt tayyor bo'ladi.

Kazeinli grunt

Qatlamlar	Kazein yelimi	Suv	Nashatir 25%	Rux oqartiruvchi	Bo'r	Fenol	Glitserin
Yelimlash 2 qatlam	1	10	0,4			0.01	0,2
Grunt 3 qatlam	1	10	0,4	2,5	2,5	0.01	-

Yuqorida ko'rsatilgan kazeinli gruntning retsept bo'yicha tayyorlash.

Yelimlash uchun 1 kv metrda taxminan 30-35 g kazein yelimi ketadi, shuni inobatga olgan holda miqdori hisoblanadi.

Shisha bankaga kazein yelimini solib, suv quyisiz va nashatir solasiz, shisha yoki yog'och cho'p bilan aralashmasiz (faqat temir bo'lmasligi kerak). Yuqorida qayd etilganidek, kastrulkaga sochiqni to'rt buklab solib, tayyorlangan bankadagi aralashma sochiq ustiga qo'yiladi. Kastrulkaga bankadagi aralashma chegarasiga yetguncha suv quyiladi va uni elektr plitada qizdiriladi, me'yoriga yetguncha aralashtirib turiladi.

Tayyor bo'lgan eritma elakdan o'tkaziladi, yelim elakdan to'liq o'tsa, demak, eritma me'yorida, agar kazein elakda ko'p qolgan bo'lsa, uni yana takroran me'yoriga yetguncha qizdiriladi. Tayyor bo'lgan eritmani matoga surtiladi. Qurigandan keyin, yuqorida qayd etilgandek, grunt uchun eritma tayyorlanadi va unga rux (sink), bo'r qo'shib, emulgator orqali uzoq aralashtiriladi. Tayyor bo'lgandan so'ng grunt shetinali fleys bilan mato yuzasiga surtiladi. Grunt qurigandan keyin yana 2 qatlam grunt surtiladi[4].

Gruntlashdagi qoida: Grunt qatlami qalin bo'lishi kerak emas, faqat teshik yopilsa bas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2018-yil 25-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi badiiy ekspertlar kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi 474-sonli qarori
2. Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma./G'.A Artiqov. - T.: «SHARQ», 2007. - 88 b
3. Vebsayt Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi RANGTASVIR TASVIRIY SAN'ATNING YETAKCHI TURI SIFADIDA. ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 <file:///C:/Users/User/Downloads/98-103.pdf>

4. O‘G‘Li, A. A. S. (2023). TASVIRIY SAN‘AT MASHG‘ULOTLARIDA GRAFIK DASTURLAR VOSITASIDA TASVIR ISHLASHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 10), 19-23.